

## XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QOZOQ'ISTONDA TIL SIYOSATI

**Ravshanova Feruza Murodullayevna**

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti ilmiy xodimi  
[ravshanovaf24@gmail.com](mailto:ravshanovaf24@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Qozog'iston davlatining mustaqillikgacha bo'lgan davr ichida olib borilgan til siyosati masalalari bag'ishlangan. Ushbu davrda mamlakatda olib borilgan til siyosatining davlat boshqaruv tizimi, ta'lim, ommaviy axborot vositalarida qo'llanilishiga oid ishlar misolida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'z:** til siyosati, til vaziyati, demografik quvvati, tilning ijtimoiy vazifasi, oddiy so'zlashuv tili, ta'lim tili.

Mamlakatda til siyosati tilni rejalashtirish, til holati, til vaziyati, til maqomi kabi jihatlarni yoritishga qaratiladi. Har bir mamlakat til va jamiyat munosabatini o'rganish asosida mamlakatda mavjud bo'lgan millatlar tilining til vaziyatidan kelib chiqib, o'z til siyosatini olib boradi. Xususan. sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan til siyosatini A.Shveytser quyidagicha izohlaydi: "Davlat, partiya, sinf, ijtimoiy guruh tomonidan til yoki til quyi tizimining butun funktsional taqsimotini o'zgartirish yoki saqlab qolish, yangi normani joriy etish yoki mavjud til normasini saqlab qolish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuyi"<sup>1</sup>. Mamlakatda olib borilayotgan til siyosati davlat boshqaruv tizimi, ta'lim, ommaviy axborot vositalarida tilning qo'llanishiga oid ishlar misolida ko'rish mumkin.

### **Ish yuritishda til siyosati masalasi**

Tadqiqotlarda 1924-yilda "Avtonom respublikalarda ish yuritish mahalliy tillarga o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qilinganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Ushbu qarordan so'ng mamlakatda ish yuritishda qozoq tilidan foydalanilgan. Bu vaqtda tashkilot va muassasa xodimlarining qozoq tilida ish yuritish malakasiga ega bo'lmaganligi sababli, 1924-yil 21-iyulda QSSR Xalq mehnat komissarligining 55-sonli "qozoq tilida ish yuritishning joriy etilishi munosabati bilan davlat tashkiloti va muassasalarida qozoq tilida ish yuritish malakasiga ega bo'lmagan xodimlarni, qozoq tilida ish yuritish malakasiga ega bo'lgan xodimlarga almashtirish tartibi to'g'risida"<sup>2</sup>gi qarori chiqariladi. 1924-yilda "Avtonom respublikalarda ish yuritish

<sup>1</sup> Швейтсер. А. Д. Современная социоллингвистика: теория, проблемы, методы. [Modern Sociolinguistics: Theory, Problems, Methods]. – Москва: Наука, 1976. – С.98.

<sup>2</sup> 21 июля 1924 г. Постановление Народного комиссариата Труда КССР № 55 "О порядке увольнения рабочих и служащих государственных учреждений и предприятий по случаю введения делопроизводства на казахском языке и замены их лицами, знающими казахский язык и письменность" / Омирбекова М.Ш. и д. Языковая политика в Казахстане (1921-1990 годы). – Алмата: Казак университети, 1997. – С. 35.

mahalliy tillarga o'tkazish to'g'risida"gi qarorini amalga oshirish 1928-yil oxirigacha uzaytiriladi<sup>3</sup>. Natijada davlat idoralarida ish yuritishda yana rus tili qo'llanaverdi, buning asosiy sabablaridan biri hukumat muassasalari xodimlarining qozoq tilida ish yuritish malakasiga ega emasligi bilan bog'liqdir. Bu masalani bartaraf qilish maqsadida, 1925-yil 6-fevralda Qozog'iston Markaziy Saylov komissiyasi huzuridagi Markaziy Komissiya QSSR Xalq Komissarlari Sovetiga xat yuboriladi. Xatda respublika davlat muassasalarida qozoq tilida ish yuritishni joriy etish tadbirlari uchun mablag' ajratish so'ralgan.<sup>4</sup> Shuningdek, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi 1927-yilda joylarda milliy tillarni o'rganish uchun muddat belgilash, xodimlarga til o'rganish uchun imkoniyat berishni tavsiya etadi. Bu vaqtda mamlakatda til siyosati lotin alifbosiga asoslangan qozoq tilining ijtimoiy vazifalarini kengaytirishga ahamiyat qaratgan. Xususan, ish yuritishda qozoq tilining lotin alifbosida ish ko'rishi bevosita tilning ommalashishi hamda yoyilishiga sabab bo'ladi.

### **Ta'limda til siyosati masalasi**

Ushbu davrda ta'limning asosiy e'tibori qozoq xalqini savodxonligini oshirish hamda maktablar uchun qozoq tilidagi darsliklarni tuzishga qaratilgan. Sobiq Rossiya imperiyasi davrida 60 dan ortiq xalqlar o'z yozuviga ega bo'lmagan. Xususan, bu davrda qozoq xalqi ham arab yozuvidan foydalangan. XX asr boshlarida ta'limda arab yozuv tizimi qo'llanganligi qayd etilgan<sup>5</sup>. Shu sababli, 1921-yilda QSSR Davlat nashriyoti huzuridagi tahririyat komissiyasi a'zolarining I va II bosqich qozoq maktablari uchun darsliklar tuzish va tarjima qilish masalasi ko'rib chiqilgan.<sup>6</sup> Bu vaqtda qozoq tilidagi darsliklar yetarli emasligi sababli rus tilidagi darsliklarni qozoq tiliga tarjima ishlari olib borilgan.

1927-yil noyabr oyida Butunrassiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasining millatlar bo'limi boshlig'i S.Asfendiyarov mamlakatdagi til vaziyatini quyidagicha izohlaydi: "Qozoq millat vakillarining farzandlari ixtiyoriy ona tilini emas rus tilini o'rganishni xohlaydi. Qirg'iz millat vakillari farzandlarini rus tilida ta'lim olishga undaydi."<sup>7</sup> Bu holat ta'limda qozoq tilidagi darsliklarning yetarli emasligi, mutaxassislarning qozoq tilini o'qitish makalasiga ega emasligi hamda rus tilining demografik quvvati yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, E.Polivanov ham quyidagi fikrni keltiradi:

<sup>3</sup> Аманжолова Д.А. Языковая политика и культура управленцев Казахской АССР.1920-1936 гг. Российские регионы: взгляд в будущее. 2016. № 2. – С.42.

<sup>4</sup> 6 февраля 1925 г. Письмо Центральной Комиссии при КЦИК в СНК КССР о выделении средств на мероприятия по введению делопроизводства на казахском языке в государственных учреждениях республики / Омирбекова М.Ш. и д. Языковая политика в Казахстане (1921-1990 годы). – Алмата: Казак университети, 1997. – С.36.

<sup>5</sup> Исагамбетов Т. Развитие казахского истеблишмента в конце XIX - середине XX веков // Центральная Азия. 1997. № 11. [Электронный ресурс] <http://turkolog.narod.ru>.

<sup>6</sup> Конец января - начало февраля 1921 г. Протокол объединенного совещания, созванного Наркомпросом и членом редакционной комиссии при Госиздате КССР А.Байтурсиновым по вопросу составления и перевода учебников для казахской Единой Трудовой школы I и II ступени./ Омирбекова М.Ш. и д. Языковая политика в Казахстане (1921-1990 годы). – Алмата: Казак университети, 1997. – С.38.

<sup>7</sup> Аманжолова Д.А. Языковая политика и культура управленцев Казахской АССР.1920-1936 гг. – С.42.

“O’sha vaqtda qozoq millat vakillarining savodxonligi ona tiliga nisbatan rus tilida yuqori bo’lgan. Lisoniy taffakurni ifodalashda ham ona tiliga nisbatan rus tili ustunlik qilgan.”<sup>8</sup> Bundan ko’rinadiki, mamlakatda rus tili ona tili darajasida o’rganilgan. Mamlakatdagi bunday til vaziyatining yuzaga kelish sabablaridan biri davlat boshqaruv tizimi, ommaviy axborot vositalari, kundalik aloqa-munosabatlarda rus tilining faol qo’llanganligi bilan bog’liqdir.

### **Alifbo va imlo masalasi**

1926-yil Butunittifoq Turkologiya Kongressining 1-sonli “Yangi turk alifbosini isloh qilish” qaroriga<sup>9</sup> muvofiq, yangi turk lotin alifbosi joriy qilingan. Ammo, bu vaqtda lotin alifbosiga o’tishni qozoq jadidlari X.Dosmuxamedov, M.Dulatov, A.Baytursinovlar yoqlamaydi. Bunga javoban Butunittifoq Turkologiya Kongressi yangi lotin alifbosi arab alifbosiga nisbatan texnik ustunligi hamda boshqa respublikalar bilan diplomatik aloqalarni taraqqiy ettirishi bilan bog’liqligini ta’kidlaydi. Kongress yangi lotin alifbo islohotini amalga oshirish uchun Ozarbayjon hamda SSSR tarkibidagi boshqa respublikalarning tajribasi va uslubidan foydalanishni tavsiya qilgan.

1927-yilda QASSRda lotin alifbosiga rasmiy o’tish e’lon qilingan. Qozog’iston markaziy saylov komissiyasi qaroriga ko’ra mahalliy ijroiya qo’mitalari huzurida yangi alifbo qo’mitalari tashkil etiladi. 1928-yilda QASSR da 80 ga yaqin yangi alifbo tarafdorlarining birinchi anjumani bo’lib o’tadi.

1929-yil 7-martda SSSR Markaziy Saylov komissiyasi va SSSR Xalqaro kengashi sohalarda arab grafikasidan foydalanmaslik to’g’risida qaror qabul qilgan, ammo arab grafikasi amalda qo’llanib kelingan.

1930-yilda QASSR Markaziy saylov komissiyasi tomonidan davlat boshqaruv tizimi lotin yozuvida ish yuritishi belgilangan. Ammo bu qaror ijrosi markaziy muassasalarda 1934-yilga kelib amalga oshirilgan. Chunki, tuman hamda ovullarning ijtimoiy aloqa-munosabatlarida arab va rus tillari asosiy aloqa-munosabat vazifasini bajargan.

N.Nurmakovning qayd etishicha, tashkilot va muassasa xodimlarining lotin alifbosini o’zlashtirilmaganligi, hujjatlarni tarjima qiladigan mutaxassislarning yetarli emasligi sababli hujjatlarni rus tilidan qozoq tiliga tarjima qilishda tarjima apparatlaridan foydalangan. Natijada amalga oshirilgan tarjimalarda xatoliklar yuzaga kelgan. Ish yuritishda yuzaga kelgan bu kabi muammolardan so’ng ixtiyoriy rus tilidan foydalanishga o’tilgan.<sup>10</sup> Yuqorida keltirilgan til vaziyati natijasida ish yuritishda

<sup>8</sup> Поливанов Е.Д. Родной язык в национальной партшколе // Вопросы национального партпросвещения. М., 1927. – С.113-114.

<sup>9</sup> Март 1926 г. Резолюция 1-го Всесоюзного Тюркологического съезда о новом тюркском алфавите / <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

<sup>10</sup> Нурмаков.Н. Латинизация алфавита - орудие пролетарской революции // Алфавит Октября. С.7; Тогжанов Г. Указ.раб. – С.67.

qozoq tilidan foydalanish cheklangan. Demak, ish yuritishda qozoq tilidan foydalanish cheklangan bo'lsa-da, ta'lim tizimida rus va qozoq tillaridan foydalanilgan. Shuningdek, mamlakatda bir vaqtning o'zida kirill va lotin alifbosi qo'llangan.

### **Matbuotda til siyosati masalasi**

Tadqiqotlarda bu davrga kelib respublikada arab tilida o'qish va yozish malakasiga ega bo'lganlar 8-10 foizni tashkil qilgan. Bu vaqtda arab tilida 10 ta gazeta, 2 ta jurnal va 100 ga yaqin kitob nusxa nashr etilgan<sup>11</sup>. Arab alifbosidagi ayrim harflarni texnik jihatdan ifodalash imkoniyati cheklanganligi xatoliklarni yuzaga keltirgan. Natijada nashr ishlarida arab tilidan foydalanilmadi. Matbuot qozoq va rus tillarida ish olib borgan. Masalan, “Казахстанская правда” (Qozog'iston haqiqati) gazetasi 1920-yillardan boshlab rus tilida nashr etilgan<sup>12</sup>.

“Jas alash” (Yosh millat) gazetasi 1921-yildan qozoq tilida nashr etilgan.<sup>13</sup> “Qazaqstan ayelderi” (Qozog'iston xotin-qizlari) jurnali 1925-yildan boshlab qozoq tilida chop etilgan<sup>14</sup>. “Народное хозяйство Казахстана” (Qozog'iston xalq xo'jaligi) jurnali 1926-yildan boshlab rus tilida chop etilgan<sup>15</sup>. Demak, matbuotda ham qozoq va rus tillari qo'llanilgan.

Umuman olganda, bu davrda mamlakat boshqaruvidagi asosiy sohalar ish yuritish, ta'lim, matbuot qozoq va rus tillaridan foydalangan. Ushbu davrda mamlakatda til siyosati qozoq tilining ijtimoiy vazifalarini kengaytirishga ahamiyat qaratgan. Qozoq tilining ish yuritish, ta'lim, matbuotda qo'llanishini qarorlar bilan asoslangani til siyosatining tizimligini belgilagan.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Аманжолова Д.А. Языковая политика и культура управленцев Казахской АССР.1920-1936 гг. Российские регионы: взгляд в будущее. 2016. № 2. – С.42
2. Исмагамбетов Т. Развитие казахского истеблишмента в конце XIX - середине XX веков // Центральная Азия. 1997. № 11. [Электронный ресурс] <http://turkolog.narod.ru>.
3. Конец января - начало февраля 1921 г. Протокол объединенного совещания, созванного Наркомпросом и членом редакционной комиссии при Госиздате КССР А.Байтурсыновым по вопросу составления и перевода учебников для казахской Единой Трудовой школы I и II ступени./ Омирбекова М.Ш. и д. Языковая политика в Казахстане (1921-1990 годы). – Алмата: Казак университети, 1997. – С.56.

<sup>11</sup> Тогжанов Г. История движения и победы нового алфавита среди казаков // Алфавит Октября. Итоги введения нового алфавита среди народов РСФСР. Сб.ст. Под общей ред. Н.Нурмакова. – М. –Л., 1934. – С.60-72.

<sup>12</sup> <https://dombrovskiy.online/>

<sup>13</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

<sup>14</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

<sup>15</sup> <https://kazneb.kz/ru/catalogue/view/1106924>

4. Март 1926 г. Резолюция 1-го Всесоюзного Тюркологического съезда о новом тюркском алфавите / <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
5. Нурмаков Н. Латинизация алфавита - орудие пролетарской революции // Алфавит Октября. С.7; Тогжанов Г. Указ.раб. – С.67.
6. Поливанов Е.Д. Родной язык в национальной партшколе // Вопросы национального партпросвещения. – М., 1927. – С.113-114.
7. Тогжанов Г. История движения и победы нового алфавита среди казаков // Алфавит Октября. Итоги введения нового алфавита среди народов РСФСР. Сб.ст. Под общей ред. Н.Нурмакова. – М; – Л., 1934. – С.60-72.